



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar- mart*




XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI*2023- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Xorazm viloyatining 2023- yil 1- aprel holatiga doimiy aholisi soni **1965,2** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **7,1** ming kishiga yoki **0,4 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **650,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **33,1 %**), qishloq aholisi soni **1 314,9** ming kishi (**66,9 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni**1 965,2** *ming kishi***Tabiiy o'sish****+7,5** *ming kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi****Shahar****33,1%****Qishloq****66,9%****Aholining tabiiy harakati, *ming kishi*****Tug'ilganlar soni****Vafot etganlar soni****Aholining tabiiy o'sishi**


Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-mart




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- aprel holatiga




2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **31,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1- aprel holatiga

Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi
1- aprel holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	1930,7	1965,2	101,8
<i>shaharlar :</i>			
Urganch sh.	147,3	150,7	102,3
Xiva sh.	95,6	97,3	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	170,0	173,2	101,9
Gurlan	152,6	155,0	101,6
Qo'shko'pir	176,5	179,4	101,6
Urganch	206,4	210,3	101,9
Hazorasp	199,3	202,9	101,8
Tuproqqal'a	56,9	58,3	102,5
Xonqa	192,3	195,5	101,7
Xiva	150,0	152,4	101,6
Shovot	174,8	177,6	101,6
Yangiariq	119,3	121,4	101,8
Yangibozor	89,7	91,2	101,7

Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Viloyatda 2023- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **325** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **6** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **319** kishi).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **5201** kishi, Xiva shahrida **2854** kishi, Urganch tumanida **471** kishi, Hazorasp tumanida **452** kishi, Xonqa tumanida **452** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida **36** kishi, Yangibozor tumanida **266** kishi, Yangiariq tumanida **301** kishi, Qo'shko'pir tumanida **333** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Shahar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

Hazorasp	1168	23,4 ‰
Urganch	1106	21,4 ‰
Urganch sh.	1074	29,0 ‰
Bog'ot	913	21,4 ‰
Xonqa	905	18,8 ‰
Shovot	763	17,4 ‰
Gurlan	756	19,8 ‰
Qo'shko'pir	716	16,2 ‰
Yangiariq	602	20,2 ‰
Xiva	475	12,7 ‰
Xiva sh.	451	18,8 ‰
Yangibozor	443	19,7 ‰
Tuproqqal'a	282	19,7 ‰

Tug'ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar- mart

O'g'il bolalar **4 893** Qiz bolalar **4 761**



Yanvar- fevral

O'g'il bolalar **3 319** Qiz bolalar **3 203**



Mart

O'g'il bolalar **1 574** Qiz bolalar **1 558**




Yanvar- mart

Shahar aholisi **3 563** Qishloq aholisi **6 091**




2023- yil yanvar- mart oylarida **9,7** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,0** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **0,8** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yilda **19,2** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi



Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

Urganch sh.	267	7,2 ‰
Urganch	245	4,7 ‰
Bog'ot	223	5,2 ‰
Hazorasp	222	4,4 ‰
Qo'shko'pir	219	5,0 ‰
Shovot	185	4,2 ‰
Xonqa	150	3,1 ‰
Xiva	139	3,7 ‰
Gurlan	129	3,4 ‰
Xiva sh.	113	4,7 ‰
Yangiariq	110	3,7 ‰
Yangibozor	90	4,0 ‰
Tuproqqal'a	64	4,5 ‰



2023- yilning yanvar-mart oylarida **2,2** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-mart oylarida **5,0** promille bo'lgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart, kishi



2023- yilning yanvar- mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining **41,7 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,9 %** i – o'simtalardan, **10,2 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **3,8 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **5,0 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **1,0 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, **29,4 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti




Soni
660
kishi

Koeffitsiyenti
1,4
promille

Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2023- yilning yanvar-mart oylarida **660** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar- mart




Yanvar- fevral



Mart




Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti




2023- yilning yanvar-mart oylarida **5,2** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **10,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- mart oylarida **11,0** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, birlik



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi



2023- yil yanvar- mart oylarida **0,7** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,4** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar- mart oylarida **1,0** promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023- yil yanvar- mart oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 2 079 kishini tashkil etdi.


Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 2 493 kishini, migratsiya saldosi minus 414 kishini tashkil etdi. (2022- yil yanvar- mart oylarida minus 274 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

(kishi)

	2022 - yil yanvar- mart			2023- yil yanvar- mart		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	1918	2192	-274	2079	2493	-414
<i>shaharlar:</i>						
Urganch sh.	442	448	-6	491	562	-71
Xiva sh.	124	133	-9	114	177	-63
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	54	75	-21	52	94	-42
Gurlan	61	79	-18	61	115	-54
Qo'shko'pir	98	164	-66	66	136	-70
Urganch	448	302	146	511	358	153
Hazorasp	46	278	-232	93	294	-201
Tuproqqal'a	185	74	111	240	104	136
Xonqa	59	135	-76	59	161	-102
Xiva	114	204	-90	152	175	-23
Shovot	76	146	-70	65	138	-73
Yangiariq	126	83	43	106	105	1
Yangibozor	85	71	14	69	74	-5

KO'CHIB KELGANLAR




Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-mart, kishi

Urganch	511	9,9 ‰
Urganch sh.	491	13,2 ‰
Tuproqqal'a	240	16,8 ‰
Xiva	152	4,0 ‰
Xiva sh.	114	4,8 ‰
Yangiariq	106	3,5 ‰
Hazorasp	93	1,9 ‰
Yangibozor	69	3,1 ‰
Qo'shko'pir	66	1,5 ‰
Shovot	65	1,5 ‰
Gurlan	61	1,6 ‰
Xonqa	59	1,2 ‰
Bog'ot	52	1,2 ‰




2023- yilning yanvar-mart oylarida **2,1** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- mart oylarida **4,0** promille bo'lgan).

KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar- mart kishi

Urganch sh.	562	15,2 ‰
Urganch	358	6,9 ‰
Hazorasp	294	5,9 ‰
Xiva sh.	177	7,4 ‰
Xiva	175	4,7 ‰
Xonqa	161	3,3 ‰
Shovot	138	3,2 ‰
Qo'shko'pir	136	3,1 ‰
Gurlan	115	3,0 ‰
Yangiariq	105	3,5 ‰
Tuproqqal'a	104	7,3 ‰
Bog'ot	94	2,2 ‰
Yangibozor	74	3,3 ‰



2023- yilning yanvar-mart oylarida **2,5** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **5,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,6** promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- mart oylarida **4,6** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: (62) 224-65-08